

Jo'rayeva Mehriniso

*Termiz davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi*

**"NURLI SO'Z"**

Ona so'zin aytsam nogahon,  
Ko'nglim to'lar mehr, quvonchdan.  
Ota so'zin aytganda nogoh,  
Dilim yayrar orzu, ishonchdan.

Ota davlat, ona jannatdir,  
Mehr bering, qo'ldan kelguncha.  
Bir kun usiz huvillab qolar,  
Keng hovlingiz, bir katta ko'cha.

Bellariga quvvati bo'ling,  
Xizmat qiling yelib- yugurib.  
Ko'zlariga bir nur bo'lingki,  
Bolam desin sizni sog'inib.

Barcha ota va ona uchun  
Farzandining baxti muhimdir.  
Mehnat qilar, farzandi uchun  
Bari bir so'z: "Mehr" uchundir.

**AYOL...**

Ayol kulib turar, qalbi yig'lar jim  
Ayol yig'lab turib, kulishi mumkin.  
Ne ne ayollarni ko'rgan bu olam,  
Ayol jilmayib ham o'lishi mumkin.

Azob- mashaqqatga berar jonini,  
Ayol xiyonatdan kuyishi mumkin.  
Tongda jim uyg'onib yopar nonini,  
Ayol jilmayib ham o'lishi mumkin.

Sadoqat bobida yetolmas hech kim,  
Ayol sevilishi, suyishi mumkin.  
Garchi zarrachada mehr ko'rsa ham,  
Ayol shukur qilib, sevishi mumkin.

Farzandlar baxtini, kamolin ko'rib,

Ayol mashaqqatga chidashi mumkin.  
Kasal farzandiga jonini berib,  
Ayol jilmayib ham o'lishi mumkin.

Dunyoda ayollar ko'pdir aslida  
Vafo, sadoqatdir alar naslida,  
Alloh bor, o'lim haq inson nazdida.  
Ayol jilmayib ham o'lishi mumkin.

### **BOLALIGIM SENI SOG'INDIM JUDA...**

Yurak yonar hamon, ko'zlarimda nam  
Qachon katta bo'ldim, ulg'aydim birdan  
Sur'atlarda qoldi, qoldi dilda dam  
Bolaligim seni sog'indim juda.

Endi qo'g'irchoqlar o'ynamayman, yoq.  
Dilimda yonmoqda, bir olov bir cho'g',  
Qalbim tublarida bir nimalar yo'q.  
Bolaligim seni sog'indim juda.

Loylarda yugurib, uchmayman endi,  
Dada, dadajon deb quchmayman endi.  
Axir, katta bo'pman, bilyapman endi.  
Bolalagim seni sog'indim juda.

Yurak fig'on yutib, yig'laganda ham  
Bulbul bola kuyin kuylaganda ham  
Onam allasini eshitganda dam  
Bolaligim seni sog'indim juda.

Samolarda varrak uchirishlarni,  
Baqirib dunyoni ko'chirishlarni  
Araz qilib, ishim bitirishlarni  
Bolaligim seni sog'indim juda.

### **ILK ZAFAR**

Bugun ilk zafarni egalladik biz,  
Quvonchdan ko'zimga yoshlarim keldi.  
Kecha-kunduz demay, yelib yuribmiz  
Endi davron kelib, davrlar keldi.

Ilk bora maqolam chiqqan ushbu kun,  
Tarix zarvarag'iga muhrlanadi.

Endi marra yaqin, g'alaba butun.  
Har Ishim, har kuchim qadrlanadi.  
Iroda ustozim saboqlaridan,  
Ushbu marralarga yetib turibman.  
Onamdek ko'ribmen, ishinchlaridan,  
Yiqilmay, siqilmay sergak turibman.

Rahmat deyman sizga, rahmat onajon,  
Shogird yutug'ingiz ko'payaversin.  
Sizsiz ustozimiz, sizsiz jonajon,  
Savobdan umringiz uzayaversin.

### **ONA SIZNI SOG'INDIM BUGUN...**

Ona sizni sogindim bugun  
Ko'rgim kelar sizni onajon.  
Lekin sizsiz o'tmoqda kunlar  
Uzoqdadir nurli xonadon.

Ona sizni sog'indim bugun,  
Nima qilay borolmasam men.  
Yuragimda bir kemptiklik bor,  
Bordir unda bir katta to'zon.

Ona sizni sog'indim bugun  
Qachon ko'rar nurli yuzingiz.  
Yuragimda quvonch to'lar goh,  
Eshitganda shirin so'zingiz.

Ona sizni sog'indim bugun,  
Mehnat qilib, charchab qolmang siz.  
Bizni o'ylab, tunlar bedorlab,  
Ming yil yashang, hech ham o'lmang siz.

Ona sizni sog'indim bugun,  
O'qish tugab, boraman asta.  
Shunda chiqib oldingiz shodon,  
Gul tutarman, sizga bir dasta.

### **SEVGI NADUR?!**

Sevgi nadur?  
Yuraklarni qiynar ga'm- alam,  
Sevgi nadur?  
Ko'zlardagi yoshlar dam - badam,

Sevgi nadur?  
Ikki vujud visoli birla  
Tuyg‘ulardan yaralguvchi yangi bir olam.

\*\*\*\*\*

Baxtsiz inson demang, baxtlilar qancha,  
G‘amsiz inson demang, g‘amlilar qancha.  
Qanchadir insonning mehrga zori,  
Mehrsiz insonlar baxtlidan ancha

\*\*\*\*\*

Yuragimda dardlarim ko‘pdir,  
Ko‘zlarimda ammo, lek quvonch.  
Aytadigan bir kishim yo‘qdir.  
Yo‘qdir menda hech kimga ishonch.

### **MUVASHSHALAR**

Sezgandirsiz ajoyib qiz u,  
Ajib, xushro‘y, gul yuzli dilbar.  
Lola kabi chiroyin ko‘rib  
Ortga oqar ariqda suvlar  
Mening ko‘zim tushib nogahon,  
Ajib hislar uyg‘ondi menda  
Tinmay izlab yuragim yiglab  
Qaytib keldim ostonasidan  
Aytsam endi dilim og‘riydi  
Chiqmas ekan darvozasidan.

\*\*\*\*\*

Malohati jonni olguvchi,  
Oy yuzligim chiroyli gulim.  
Hayolari dilni yoqguvchi,  
Iymonligim shirin so‘zligim.  
Chehrangizga oshiq ko‘ngillar,  
Emishdurku, oy kabi to‘lin.  
Husningizda Shirindan qochib,  
Rashk qiladur sizni bulbullar.  
Ayting, mensiz yashaysizmi yo,  
Men aytaman, sizensizlik o‘lim.

\*\*\*\*\*

Samolardan tushganmi go‘yo,  
Umud gulim, ummonim sensan.

Ro'yolarday ko'ringanmi yo,  
Aqligim, osmonim sensan.  
Yoziladi dilimda umid,  
Yoningda yor bo'lmoqlik istab.  
Ozor qilsang, yuragim yonib,  
Ketolaman, bir ketgin desang.

\*\*\*\*\*

Uchib go'zal xayol makonlarida,  
Men seni uchratdim, tushimda go'zal.  
Iymanib qararding, Rayhon pinjida,  
Dil tortar orazing misoli g'azal.  
Ajib tuyg'ulardan aylanib boshim,  
Xushimni yo'qotdim, misoli o'sal.

\*\*\*\*\*

Hijroning dardida o'rtanmish dillar,  
Imkonim bo'lsaydi, sen-la bo'lardim.  
Layli hajri birla, Shirin ishqidan,  
Orazing, husningni afzal ko'rardim.  
Lek, birga bo'lmadi bu oshiq ko'ngil,  
Ayriliq o'tidin kuyib yurardim.

\*\*\*\*\*

Shirin so'zlaridan ko'zlar quvonsin,  
Odobu, umridan taralsin ifori.  
Iliq kulgusidan dillar yashnasin,  
Robbim, ehtiyot qil, yig'latma zinhor.  
Ardoqla, avayla, sevgin ammo lek,  
Lek, jajji umrida yashnasin bahor.

\*\*\*\*\*

Boraman yoningga bo'lib parvona,  
Anvoyi iforing sezib boraman.  
Hoyotim mazmuni, sensan yagona,  
Otashday yal yonib, kuyib boraman.  
Ruhing - la birlashib, quvonchdan kulib,  
Atirgul gulidan uzib boraman.

\*\*\*\*\*

Dunyoda yashamoq uchun ming bora,  
Iltijo qilurman, sen bilan yona.  
Lal, yoqut husningni ko'rsam bir bora,

Darmonsan, davosan, sensan yagona.  
Ohu ko'zlaringga xumoring bo'lay,  
Ruhingga, jismingga jonsan hamona.  
Ardoqlab, avaylab men yoring bo'lay,  
Mening yuragimsan, jonsan durdona.

\*\*\*\*\*

Sevikligim, sevinchim o'zing,  
Esar shamol shabbodasida.  
Visolingni ko'rmoqlik uchun,  
Istar ko'nglim vayronasida.  
Netay, oshiq qalbim qiynaydi,  
Chidolmasa, yuragim netay.  
Yuragimning bir donasisan,  
Seni tashlab qaylarga ketay.  
Firoqing o'tida kuydirma meni,  
Ezib, bagr- u dilim suydirma meni.  
Rasmingni qalbinga saqlaganmanku,  
Umidini so'ndirib, yondirma meni.  
Zebo sanamlardan seni tanladim.  
Alamdan kuydirib, o'ldirma meni

\*\*\*\*\*

Faryod qilur qalbim nolasi,  
Azizam, ko'zimning oq-u qorasi.  
Rashk o'tida kuydirib meni,  
Izhor etding so'zing donasi.  
Dilim o'rtab, kuyib yondirib,  
Ayt maqsading, ne nishonasi.

\*\*\*\*\*

Nelar qilay, sening tegrangda,  
Omon qoldim, dilda to'fon, g'am.  
Zamon yonmish, sening vaslingda,  
Ig'vo qilur yurak, ko'zda nam.  
Mening ko'zim senga tushganda,  
Aylanaman, o'zimdan o'zim.  
Mehrimga jo'shib, qahrim oshganda,  
Boraman men tap tortmas izim.

\*\*\*\*\*

Zarlar sochay yuzingizdan men,  
Essin mayin shabbodasida.

Beqarorman, lolman, hayronman,  
Oshiq ko‘ngil vayronasida.

## SO‘NGAN UMID (hikoya)

Jo‘rayeva Mehriniso

*Termiz davlat universiteti o‘zbek filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi*

Gulzoda yangam supa chetida horg‘ingina o‘tirardi. Garchi endigina 28 yoshga to‘lgan bo‘lsa-da yuzlariga ajin, sochlariga bitta, ikkita oq oralagan. Bu ichki dardning tashqariga tomon mo‘ralab chiqayotgan alomatlari edi. Sanjar akam bilan turmush qurganiga besh yil bo‘lgan bo‘lsa-da, xudodan tilab olgan, yakka-yu yolg‘iz farzandini, jigabandini bir hovuch tuproq undan sug‘urib olgandi. O‘shanda Islomjon endi yorug‘ olamni ko‘rgan paytlari edi. Gulzoda yangamning kamqonligidanmi, yo darmonsizligidanmi Islomjon vaqtidan erta yetti oyligida kesar-kesish yo‘li bilan dunyoga keldi. Odatda, vaqtidan oldin tug‘ilgan bolalar, vaqtida tug‘ilganlarga nisbatan judayam kichkina, nimjon bo‘lishadi. Islomjon ham xuddi shunday. Gulzoda yangam unga ishonchim, umidim deya Islomjon deb ism qo‘ygandi. Uni ko‘rganman judayam kichkina, ilk bor yoniga borganimda qo‘rqqandim. Shunchalar ozg‘in va ingichka qo‘llaridan ilk bora tutgandim. Nimjonligi sababli qo‘shimcha ovqat talab qilar, unga esa albatta, mablag‘ kerak edi. Sanjar akam farzandining chalajon tug‘ilgani uchunmi, yoniga kirmas, u yotgan xonadan aylanib o‘tar edi. Shundan so‘ng, kun ora ichib keladigan odat chiqardi, keyin kun ora har kuniga aylandi. Har kuni ichib kelib, janjal ko‘tarar, Gulzoda yangamga “Sen menga chalajon farzand dunyoga keltiriding, do‘st- birodarlarimning oldida bosh ko‘tarib yurolmay qoldim”- deya tana-dashnom yog‘dirardi. Bu mudhish voqea sodir bo‘lishidan oldin, Gulzoda yangam Islomjonni beshikka belayotgandi. Hali to‘la-to‘kis belab bo‘lmagandi ham eshikdan odatdagidanda ko‘proq mast bo‘lgan Sanjar akam kirib keldi. Odatda, Sanjar akam Islomjon bor xonaga kirmasdi. Bu safar kirganini biladi, Gulzoda yangam nima qilishni bilolmay qoldi. Sanjar akam murg‘akkina bo‘lib beshikda yotgan Islomjonni beshigi bilan ko‘tarib tashqariga tomon yo‘nala boshladi. Gulzoda yangam Sanjar akamni dam oyog‘iga, dam qo‘liga yopishar, ammo bu urinishlari zarra ham foyda bermasdi. Beshik tashqariga chiqarilgani ko‘yi ichidan oppoq matoga o‘ralgan murg‘akkina et yerga otilib tushdi. Gulzoda yangam jon-jahdi bilan baqirib, jigabandi tomon yugura ketdi. Axir u nimjon, bekaazoblarga yarim ko‘ngli qanday chidasin. Gulzoda yangam uning jajji jussasida urishga intilayotgan yurakchasiga quloq solib ko‘rdi, “ Urayapti, urayapti”- deya taskin berdi o‘ziga o‘zi. Yangam Islomjonni shu yaqin atrofda shifoxonaga olib bordi. Borganda yaxshi, umid bor deyishdi, ammo tongga yaqin murg‘ak go‘dakning joni uzildi. Onaku u qanday chidasin, yarimjon bo‘lsa-dafarandi edi-ku. Farzandining mushtdek tanasiga yopishib yum-yum yig‘ladi. Bu dunyoga kelib ne ko‘rding sho‘rligim, nima aybing bor ediki, tuxumdan chiqqan polapon misoli uchding-u ketding. Ertasiga Islomjonni qabrga qo‘yishdi. Shu katta dunyoga kichkinagina jussa sig‘masa, bu dunyo qanday dunyo o‘zi? Gulzoda yangam bir kun qabr boshida qoldi. Islomjonga alla aytib chiqdi. O‘sha voqeadan Sanjar akam bir zum o‘zini yo‘qotib qo‘ygan. O‘sha kuni Sanjar akam topilmadi, ertasi kuni kirib keldi. Uning ko‘zlari yig‘idan shishib ketgan, teri-badanlari momataloq bo‘lib ketgandi. Keyin bilishsa, u o‘zini

mashina tagiga tashlagan ekan. Baxtga qarshi xudoyim uning jonini saqlab qolgan, go'yoki qilgan gunohi uchun tiriklar olamida jazolansin deya. U Gulzoda yangamdan tiz cho'kib, yolvorib kechirim so'radi. Gulzoda yangam o'tli nigohlari bilan unga tikilib, bir so'z demadi.

... Oradan ancha yillar o'tdi. Sanjar akam yana farzanli bo'lamiz deb umid bog'lagandi. Biroq, xudo bergan ne'matimga shukur qilmaganing uchun jazo deya, farzansizlikka duchor etdi. Gulzoda yangam umri davomida bir marotaba farzandli bo'la olar ekan. Faqatgina bir marotaba...! Uning umidi Islomjon bilan so'ngandi. Qalbida Islomjonning, shu murg'ak ko'zlarning mangu xotirasigina qoldi, xolos!